

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3--SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

I.O.Raxmonova	
Ingliz tilidagi "Food"/"Oziq-ovqat" konseptining milliy xususiyatlari.....	1101
Sh.G.Akbarova	
A comparative analysis of the original and the translations of the essay "The stranger" (L'etranger) by Alber Camus.....	1107
Sh.G.Akbarova	
Alber Kamyu asarlari tarjimasiga mazmun va mohiyat ta'siri.....	1111
Sh.G.Akbarova	
О некоторых тайнах Французских артиклей.....	1115
D.A.Ganieva, G.S.Mirzayeva	
Realialarning madaniy konnotativ xususiyatlari.....	1118
G.S.Mirzayeva	
Lingvokulturemalar tarjimasida translitratsiya usuli.....	1122
N.K.Abbasova	
Formation of foreign-language communicative competences in language learners using english proverbs and sayings.....	1125
A.A.Qayumov, A.B.Kosimova	
Jahon adabiyotida drabllarning o'rganilishi.....	1130
D.I.Mirzayeva	
O'xshatish uslubiy kategoriyasining semantik-stilistik xususiyatlari.....	1134
D.A.G'aniyeva, S.Yaxyoyeva	
Abbreviatsiya so'z yasashning samarador usuli sifatida.....	1137
Sh.B.Dushatova	
Unveiling implicit meaning: exploring the subtext of euphemisms.....	1140
Sh.B.Dushatova, X.J.Xoliqova	
The psychology of euphemisms: why do we use them?.....	1144
Z.M.Xalilova	
Kognitiv tilshunoslik zamonaviy tilshunoslikning yangi yo'nalishi sifatida.....	1148
A.S.Toshmatov	
Beyond grammar: building confidence and clarity in student writing (higher education).....	1153
N.X.Qurbonov	
The positive effects of video games in teaching english to beginner-level learners.....	1160
D.E.Normatova	
Sharq ilk uyg'onish davri va uning ilmiy-falsafiy mohiyati.....	1166
D.R.Axmadaliyeva	
Talabalarning ingliz tilida nutqiy kompetensiyasini o'yin texnologiyalari asosida rivojlantirish metodikasi.....	1171
N.Sh.Abdullayeva	
Talabalarning xorijiy tilda kasbiy muloqotini o'rgatish jarayonida dlii texnologiyalarining integratsiyasi.....	1177
S.A.Aliyeva	
Geortonimlar bilan bog'liq perifrazalar tadqiqi.....	1182
S.A.Aliyeva	
Turli tizimli tillarda geortonimik indikatorlarning leksik-semantik xususiyatlari.....	1185
M.A.Axundjanova	
A cooperative small group methodology in teaching english for esp students.....	1189
R.M.Shukurov, F.B.Abduraximova	
Turli tizimli tillarda so'z yasashining umumiy va farqli jihatlari.....	1193
F.B.Abduraximova	
O'zbek tilida mubolag'a va uning darajalanishi.....	1203
Sh.F.Latipov	
Unveiling the significance of linguistic lacuna in foreign language teaching.....	1208
L.T.Galimullina	
Semantic peculiarities of english phraseological synonyms with the component of precious stones and metals.....	1210



UO'K: 811.111+354.02

GEORTONIMLAR BILAN BOG'LIQ PERIFRAZALAR TADQIQI

ИЗУЧЕНИЕ ПЕРИФРАЗОВ, СВЯЗАННЫХ С ГЕОРТОНИМОМ

STUDY OF PERIPHRASES RELATED TO GEORTONYM

Aliyeva Sarvinoz Abbosjon qizi

Farg'ona davlat universiteti, Tilshunoslik kafedrasida tayanch doktoranti

Annotatsiya

Maqolada bayram nomlari bilan bog'liq bo'lgan perifrazalarning lisoniy xususiyatlari tadqiq qilingan. Jahon va o'zbek tilshunosligida perifrazalar yuzasidan amalga oshirilgan ilmiy ishlar sharhi yoritilgan. Perifrazalar narsa, voqea-hodisalarning o'z nomi orqali yuzaga chiqmagan muhim xususiyatlarini tasvirlab, bo'rttirib, izohlab va to'ldirib ko'rsatadi, nomni ta'sirchan ifodalashga xizmat qiladi. O'zbek tilshunosligida diniy geortonimlar bilan aloqador perifrazalar anchagina hisoblanadi. Ushbu tasviriy ifodalar xalq tafakkurining alohida ko'rinishi bo'lib, millatning dunyoqarashi, bilim va tushunchalari, diniy e'tiqodining amaliy namoyon bo'lishida lingvomadaniy ahamiyat kasb etadi. Turli geortonimlarni madaniy xususiyatlarini bo'rttirib ifodalashda foydalaniladigan perifrazalar kerakli misollar va izohlar bilan tahlil qilingan.

Аннотация

В статье изучаются лингвистические особенности перифраз, связанных с названиями праздников. Освещен обзор научных работ, проведенных по перифразам в мировом и узбекском языкознании. Перифразы описывают, преувеличивают, объясняют и восполняют важные особенности вещей, событий, не раскрываемые их названиями, служат эффектному выражению имени. В узбекском языкознании существует множество перифраз, связанных с религиозными геортонимами. Эти образные выражения представляют собой особую форму национального мышления и приобретают языковое и культурное значение в практическом проявлении мировоззрения, знаний и представлений нации, религиозных верований. Анализируются перифразы, используемые для преувеличения культурных особенностей различных геортонимов, с необходимыми примерами и пояснениями.

Abstract

Linguistic features of periphrases related to holiday names are studied in the article. The review of the scientific works carried out on periphrasis in world and Uzbek linguistics is covered. Periphrases describe, exaggerate, explain and fill in important features of things, events, which are not revealed by their names, serve to effectively express the name. In Uzbek linguistics, there are many periphrasis related to religious geortonyms. These pictorial expressions are a special form of national thinking and acquire linguistic and cultural importance in the practical manifestation of the nation's worldview, knowledge and concepts, and religious beliefs. The periphrasis used to exaggerate the cultural characteristics of various geortonyms are analyzed with the necessary examples and explanations.

Kalit so'zlar: onomastika, geortologiya, geortonim, bayram nomlari, perifraza, tasviriy ifoda, onomastik birlik, hikmatli so'z.

Ключевые слова: ономастика, геортология, геортоним, названия праздников, перифраз, изобразительная выразительность, ономастическое единство, мудрое слово.

Key words: onomastics, geortology, georthonym, holiday names, periphrasis, pictorial expression, onomastic unity, wise word.

KIRISH

Bugungi kunga kelib bayramlar, madaniy, ma'rifiy, ijtimoiy va siyosiy, san'at hamda sport bilan bog'liq bo'lgan ommaviy miqyosdagi tadbirlar, konsert va festivallar xalqimiz hayotida muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Natijada o'zbek tilida bunday geortonimlar bilan aloqador turli perifraza va paremiologik birliklar, jumladan, matallar, maqollar, tasviriy ifodalar, hikmatli so'zlar va shiorlar paydo bo'ldi.

Istiqlol yillarida tarixiy va ko'hna milliy hamda diniy bayramlarimiz yana tiklandi, keng ommaviy nishonlana boshlandi. Vaqt o'tgani sari millatlar bayramlari yangi kasbiy bayramlar bilan ham boyib bordi. Bayramlar nishonlanishi oshib borgani sari, ularni ifodalovchi tasviriy ifodalar xalqlar tilida shakllanib keldi va bunday ifodalar tilshunoslikda perifrazalar deb nomlanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ilmiy manbalarda perifraza atamasiga turlicha ta'rif berilgan bo'lib, bu ushbu terminning nechog'liq o'zgaruvchan xarakterli ekanligini tushunish mumkin. Jumladan, XX asrning 50-yillarida perifrazalar dunyo tilshunosligida, ayniqsa, rus tilshunosligida I.Z.Ilina [6, 24], V.P.Utkina [7, 87-109]lar tomonidan lingvistik jarayon sifatida boshqa hodisa yoki vositalar, masalan, istiora, sinekdoxa, kinoya, metonimiya, majoz, epitet, mubolag'a kabilar bilan bog'liq holatda ifodalangan.

Perifraza lingvistik masala sifatida birinchi bor V.P.Grigorev ilmiy ishlarida so'z-obrazdenotat munosabatlari jihatidan tadqiq etilgan. Olim mazkur termini "poetik nutq hosil qilishning eng yorqin, qiziqarli va istiqbolli usullaridan biri [5, 158]" deb ta'riflaydi. Shuningdek, Yu.D.Apreyanning perifrazatsiya mohiyatini ochib berishga qaratilgan qiziqarli talqinlari tilshunoslar e'tiboriga tushdi. Olim insonning o'zi lingvistik perifrazatsiyalash qobiliyatiga ega ekanligini, ya'ni insoniyat voqelikni xohlagan narsa, tushuncha, tasavvur kabilarni, keng ma'noda butun borliqni tafakkurida narsa, tushuncha, tasavvur kabilarni, keng ma'noda butun borliqni tafakkurida obrazli ifodalay olishi mumkinligini misollar asosida dalillab bergan, bu soha mutaxassislarining perifrazalar tadqiqiga alohida qiziqishini uyg'otdi [4, 19-27].

O'zbek lingvistikasida perifraza termini yuzasidan ilk qimmatli maqola H.Shamsiddinov tomonidan e'lon qilingan. Olim o'zak masala – perifrazaning frazeologizm bilan umumiy va xususiy jihatlari haqida fikr yuritgan o'rinlarda perifrazaning predmet-hodisani qayta nomlash, frazeologizmning esa belgini, holatni va harakatni qayta nomlashini dalillaydi hamda perifraza ham frazeologizmlar kabi til fakti sifatida tan olinishi lozimligini uqtiradi [3, 29-35].

I.E.Umirov o'zining "O'zbek tili perifrazalari" nomli nomzodlik dissertatsiyasida o'zbek tilidagi perifrazalarni ilk marta monografik planda nazariy jihatdan chuqur tadqiq qilgan. Tadqiqotda perifrazalarga, asosan, nutqiy hodisa sifatida yondashilgan va perifrazalarning quyidagi turlari guruhlangan:

1) *hosil bo'lish usuliga ko'ra*: leksik perifraza, frazeologik perifraza, sintaktik perifarza, logik perifraza, sof va kontekstual perifraza;

2) *semantikasiga ko'ra*: mualliflik ma'nosini ataydigan perifraza, kasb-kordagi mahoratni anglatadigan perifarza, shaxsning jamiyatda tutgan o'rnini anglatadigan perifraza, ijodkor asaridagi biror g'oya va mavzuni bildiradigan perifraza, muassasa va muayyan joylarni anglatadigan perifraza, suyuqlik va texnika predmetlarini anglatadigan perifarza, tabiat hodisalari va o'simliklarni anglatadigan perifraza, jonivor nomlarini anglatadigan perifraza, shaharlarni ifodalaydigan perifraza [1, 23].

NATIJA VA MUHOKAMA

Perifrazalar narsa, voqea-hodisalarning o'z nomi orqali yuzaga chiqmagan muhim xususiyatlarini tasvirlab, bo'rttirib, izohlab va to'ldirib ko'rsatadi, nomni ta'sirchan ifodalashga xizmat qiladi [2,3]. Misol uchun, *sharqona yangi yil, yilboshi, yasharish bayrami, mehnat bayrami, yilboshi, uyg'onish bayrami, ko'klam bayrami, qadriyatlar bayrami, mehr-muruvvat bayrami, do'stlik bayrami, baxt va tinchlik bayrami* kabi perifrazalar milliy bayram hisoblanmish Navro'z uchun xos birliklar hisoblanadi.

Shunisi aniqki, Navro'z nishonlanish, o'tkazilish vaqtiga ko'ra fasliy bayram hisoblanib, o'zbek xalqi uchun yangi yil ayyomi hamdir. Navro'z – tabiat, yangilanish va yasharish bayrami. Shu sababli ayrim kitoblarda Navro'z bayrami "sharqona yangi yil", "yil boshi" kabi perifarazalar bilan qo'llaniladi:

Jamshidga sochishar oltinu gavhar,

Shu kunni yangi yil – bayram deyishar.

Yil boshi Xurmuzu edi varfardin,

Dilda na g'am qoldi, na adovat kin.

(Abdulqosim Firdavsiy "Shohnoma")

Sharqona Yangi yilimiz – Navro'zi olamning qadami qutlug' va barakali kelsin! (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Navro'z umumxalq bayramiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi tabrik nutqidan // "O'zbekiston adabiyoti va san'ati", 2019, 22 mart, 1-bet).

Hurriyat bayrami deya e'tirof etiladigan geortonim bu *Mustaqillik bayrami* hisoblanib, ushbu perifrazada "siyosiy, iqtisodiy va boshqa zulm, tazyiqdan xaloslik; erkinlik va ozodlik [8, 565]" ma'nolarini bildiruvchi hurriyat so'zining "ozodlik", "erkinlik" semalari asos qilib olingan: Bu hurriyat

bayramida xalqimizning shodumon kayfiyati to'la namoyon bo'ldi [9]. Ushbu perifraza Mustaqillik bayramidagi hurlik, ozodlik tushunchalarini ifodalab, publiksistik va badiiy uslubda ishlatiladi.

O'zbek tilshunosligida diniy geortonimlar bilan aloqador perifrazalar anchagina hisoblanadi. Ushbu tasviriy ifodalar xalq tafakkurining alohida ko'rinishi bo'lib, millatning dunyoqarashi, bilim va tushunchalari, diniy e'tiqodining amaliy namoyon bo'lishida lingvomadaniy ahamiyat kasb etadi.

Diniy geortonimlardan bo'lgan *Ramazon hayiti* va *Qurbon hayiti* allaqachon millatning eng ulug'vor va qadrlil bayramlariga aylandi. Natijada ushbu geortonimlar bilan bog'liq bo'lgan "ziyorat kuni", "asl bayram", "ziyat kuni", "oylar sultoni", "mohi ramazon", "saxovat bayrami", "moshi sharif", "ro'zai ramazon", "muborak oy", "mukarram oy", "poklanish oyi", "qutlug' oy", "do'stlik va muhabbat oyi", "Qur'on oyi", "poklanish ayyomi" va "barokot oyi" kabi perifrazalar paydo bo'ldi.

Ingliz xalqining sevimli va milliy bayramlaridan biri bo'lgan *Thanksgiving day*, ya'ni Shukronalik kuni geortonimi bilan aloqador "grateful gathering", "harvest feast", "bounty banquet", "feast of thanks", "harvest homecoming", "thanksgiving Jubilee", "appreciation affair", "joyful day", "warm feast", "generous day", "grateful feast" kabi perifrazalar xalq tilida ko'p qo'llaniladi.

Christmas geortonimi inglizlarning milliy bayrami bo'lgani uchun diniy jihatdan anchagina qadrlidir. Uni xalq orasida "festive season", "joyful noel", "merry Christmas", "holiday spirit", "season of giving", "jolly celebration", "winter wonderland", "yuletide magic" kabi perifrazalar bilan birga tasvirlaydilar.

Bayramlar ichida tarixiy geortonim bo'lgan *May Day* bayrami xalq hayotida ko'hna an'analari bilan ajralib turadi va ko'proq tabiat va baxor bilan bog'liq bo'lgani sababli "blossoming celebration", "flower festival", "nature's rebirth", "spring awakening", "springtime joy", "spring festival" kabi tasviriy ifodalar bilan birga sayqallanib, ulug'lanib kelmoqda.

Rus xalqida ham bir qator geortonimlar mavjud bo'lib, har biri o'zining alohida perifrazalariga ega. Bunday perifrazalar rus xalqining qanchalik qadimiy, mehnatsevar oilaparvar, xalqparvarligini ko'rsatadi.

Mazkur bayramlar ichida *Масленица* geortonimi chuqur tarixiy ildizlari, milliy urf-odatlarini, ijtimoiy an'analari bilan alohida ajralib turadi. Rus xalqi ushbu bayramni nomlashda "касаточка", "сахарные уста", "целовальница", "веселая", "перепелочка", "перебуха", "объедуха", "ясочка" kabi perifrazalarni ishlatadilar.

XULOSA

Tahlillardan ko'rinadiki, geortonimlar bilan aloqador bo'lgan perifrazalar bayramlar asosidagi ma'naviy, madaniy mohiyati, ular bilan bog'liq urf-odatlar, milliy an'analar, ezgu istaklar ta'sirchan va obrazli tasvirlaydi. Bunday birliklar millat tafakkurining o'tkir mushohadasi hamda ziyrakligi bilan shakllangan betakror va ajoyib nomlar sifatida yillar davomida o'zining mazmun-mohiyatini yo'qotmay saqlab keladi. Shu xususiyati orqali mazkur til birliklari lingvokulturologik mohiyatga egadir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Умиров И. Ўзбек тили перифразалари. Филол.фан. номз. дисс. автореф. – Тошкент, 1996. – Б. 23
2. Расулов Р., Умиров И. Ўзбек тили тасвирий ифодаларининг изоҳли лугати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1997. – Б. 3.
3. Шамсиддинов Ҳ. Перифраза хусусида айрим мулоҳазалар // Ўзбек тили ва адабиёти. 1993, № 4. – Б. 29-35.
4. Апресян Ю.Д. Синонимические средства языка и правила перифразирования. // Русский язык в национальной школе, 1972, № 3, – С. 19-27.
5. Григорьев В.П. К проблеме перифразы // Сб. докл. и сообщений лингвистического общества. – Калинин, 1974. – С.158.
6. Ильина И.З. Перифраз и его стилистические функции в произведениях английской художественной литературы: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Москва, 1954. – С. 24.
7. Уткина В.П. Перифрастический оборот в русской художественной литературе // Известия Крымского педагогического института им. М.В. Фрунзе. – Т. 33, Вып. 1. – Симферополь, 1959. – С. 87-109.
8. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 5-ж. – Б. 565.
9. Буюк ва бетимсол Ватанимизнинг улуг байрами. Ўзбекистон Республикаси давлат мустақиллигининг йигирма олти йиллигига бағишланган байрам тантанаси // info@fergana.uz.